



## PYTHON DASTURLASH TILINING MA'LUMOT TURLARI MAVZUSINI INOVATSION YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH METODIKASI

**Boboqulov Jaloliddin Qurbanovich**

*Navoiy viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini  
oshirish hududiy markazi*

**Annotatsiya:** Maqolada Python dasturlash tilining ma'lumot turlari mavzusiga doir tushunchalar tanlab olish, tushunchalarning mantiqiy sxemasi tuzish hamda har bir tushuncha haqida ma'lumotlarni ko'rsatuvchi, o'rgatuvchi modelni yaratishning metodik asoslari berilgan.

**Аннотация:** В статье приведены методические основы для выбора понятий, относящихся к теме типов информации языка программирования Python, создания логической схемы понятий и создания обучающей модели, отображающей информацию о каждом понятии.

**Annotation:** The article provides methodological bases for selecting concepts related to the topic of information types of the Python programming language, creating a logical scheme of concepts, and creating a teaching model that displays information about each concept.

**Kalit so'zlar:** ta'lim tizimi, axborot texnologiyalari, Python dasturlash tili, Ma'lumotlar turi, Ma'lumotlar turini o'zgartirish, kompyuter modeli.

**Ключевые слова:** образовательная система, информационные технологии, язык программирования Python, тип данных, преобразование типов данных, компьютерная модель.

**Keywords:** educational system, information technology, Python programming language, Data type, Data type conversion, computer model.

### KIRISH

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda rivojlanishi jamiyatning turli jabhalarida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan keng foydalanishga bog'liq bo'lib, axborotlashuv jarayonining keskin rivojlanib borishi sohalardagi ishlarning sifat, miqdor va tezkorlik jihatlarini ortishiga olib keladi. Bu vazifalarni turli dasturiy vositalar bajaradi.

O'quvchilarning fundamental bilimlarni egallaganlik darajasini oshirish bu bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olish malakalarini sifat jihatidan o'stirishga yo'naltirilgan vositalar sifatida yangi pedagogik texnologiyalar tatbiq etilmoqda.

Ta'lim jarayonida turli xil pedagogik texnologiyalar va innovatsion usullarni qo'llanilishi dars-mashg'ulotlarning samaradorligini oshiruvchi omillardan hisoblanadi. Ta'lim mazmuni, shakli va usullarini takomillashtirish, ularning uzviyligini ta'minlash, o'qitishning noan'anaviy usullari, zamonaviy axborot va ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, didaktik materiallar va texnik vositalarni qo'llash,





fanlararo bog'lanishlarni hisobga olish bularning barchasi o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratilgandir.

Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini tatbiq etish sohasida (yo'nalishida) yaratilayotgan dasturiy vositalar tahlil qilinganda shu narsani guvohi bo'lamizki, kompyuterda o'quv dasturi yaratayotgan ko'pgina mualliflar bir-birlariga bog'liq bo'lmanan holda, parallel ravishda o'quv-ilmiy materiallarni axborot texnologiyalari asosida taqdim etishning original uslublarini yaratmoqdalar.

### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.**

Uzluksiz ta'lim tizimida fanlarini sifat va samaradorligini oshirishda noan'anaviy elektron darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish va undan foydalanish bo'yicha olib borgan ilmiy tadqiqotlari, mamlakatimiz olimlarining A.Abduqodirov, U.Begimqulov, N.I.Tayloqov, Q.T.Olimov, F.M. Zakirova, A.G'.Hayitovning ishlarida elektron darsliklar va elektron qo'llanmalar yaratish yo'llari, ularga qo'yiladigan talablar ta'lom tizimida elektron axborot reasurslari tushunchasi I.A.Allayarov, masofaviy ta'lom, uni tashkil qilish, sun'iy intelekt, ekspert tizimlar, bilimlar ombori, bilimlar omborini boshqarish tizimlari haqidagi fikrlar S.M.Nadjimova, L.T.Zaylobov, umumiy kimyonni o'qitishda foydalaniladigan axborot texnologiyalari vositalarining imkoniyatlari, didaktik funksiyalari ularni amalga oshirish yo'llarining belgilanishi ta'lom samaradorligini oshirishga zamin yaratishi haqida aytilgan, S.S.G'ulomov, A.X.Abdullayev va M.X.Lutfillayev larning ishlarida virtual stend yaratish va ularni o'quv jarayoniga qo'llash bugungi kunning dolzarb masalalardan biri ekanligi ko'rsatilgan. A.M.Po'lotov talabalarning «Informatika va informasion texnologiya» fanidan o'zlashtirgan bilimi asosida kelajakda o'zlashtiradigan bilimi darajasini prognoz qiluvchi imitasion model va undan foydalanish metodikasi ustida ilmiy izlanishlar olib borgan.

Maqsad «Python dasturlash tilini» o'rghanishda innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish tushunchalarning mantiqiy sxemalar yordamida amalga oshirilishini metodik muammo sifatida ishlab chiqishdan iborat.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Python - yuqori bosqichli dasturlash tili hisoblanib, turli xil ilovalarni yaratish uchun mo'ljallangan. Ya'ni Python dasturlash tili yordamida veb-ilovalar, o'yin ilovalari, oddiy (nastol'niy) dasturlar yaratish hamda berilganlar bazasi bilan ishlash mumkin. Ayniqsa Python dasturlash tilining tezlik bilan tarqalishiga uning mashinali o'rgatish va sun'iy intellekt sohalaridagi tadqiqot ishlarida keng qo'llanilishi sabab bo'lgan.


Python dasturlash tilining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Skriptli til. Dastur kodi skriptlar ko'rinishida bo'ldi;

Turli dasturlash paradigmlarni, xususan ob'yektga yo'naltirilgan va funksional paradigmlarni o'zida mujassamlagan;

Skriptlar bilan ishlash uchun interpreter kerak bo'lib, u skriptni ishga tushiradi va bajaradi.

Portativlik va platformaga bog'liqmaslik. Kompyuterda qanday operatsion tizim





-Windows, Mac OS, Linux boʻlishidan qat’iy nazar, ushbu operasion tizimda interpretator mavjud bolsa, foydalanuvchi tomonidan yozilgan skript kodbajariladi.

Xotiraning avtomatik boshqarilishi;

Turlarga dinamik ajratilishi;

Maʼlumki, axborotlar matnli, raqamli, ovozli, grafik va boshqa shakllarda uzatilishi mumkin. Bunday axborotlarni dasturlash tillarida qayta ishlash uchun, ularni turlarga ajratish lozim. Dasturlarda foydalaniladigan maʼlumotlar turlari dasturning maqsadiga bogʼliq boʼladi: oddiy kalkulyator sonlardan foydalanadi, elektron pochta manzillarini tekshirishga moʼljallangan dastur esa matnlar bilan ish koʼradi. Sonlar natural, butun va haqiqiy sonlarga ajratiladi. Matnli axborotlar esa belgilar yoki satrli maʼlumotlardan iborat boʼlishi mumkin.

Maʼlumotlar turi – bu oʼzgaruvchi yoki doimiy qiymatlardagi maʼlumotlar shakli.

Maʼlumotlar turi kompyuter xotirasida yetarlicha joyni zaxiraga olib qoʼyish uchun kerak boʼladi.

Odatda, dasturlash tillarida maʼlumotlar turi oʼzgaruvchi yoki doimiy bilan birga eʼlon qilinadi. Python dinamik turlarga ajratuvchi dasturlash tili hisoblanadi. Shu sababli, Pythonda oʼzgaruvchining turi u foydalanayotgan qiymat boʼyicha belgilanadi, lekin maʼlumot turini boshqa turga oʼzgartirish uchun tur koʼrsatilishi shart.

Oʼquvchilarga tushunchalar orqali taqdim etilayotgan oʼquv materialining maʼno mazmuni tushunchalarning belgilarini sanab oʼtish bilan emas, balki unga qoʼshimcha ravishda boshqa tushunchalar bilan oʼzaro bogʼliqligini koʼrsata olish katta samara beradi va tushunchalarning mantiqiy sxemasining paydo boʼlishiga olib keladi.


Python dasturlash tilining maʼlumotlar turiga doir tushunchalarning mantiqiy sxemasini ishlab chiqish hamda ularning mazmunini oʼquvchilarga yetkazish masalasi dolzarbligini koʼrsatadi.

Python dasturlash tilining maʼlumotlar turiga doir tushunchalar tanlab olinib, tushunchalarning mantiqiy sxemasi tuzilgan hamda har bir xossasi haqidagi maʼlumotlarni koʼrsatuvchi, oʼrgatuvchi kompyuter modeli ham yaratilgan (1-rasm) [6].

Maʼlumot turlari va uning tavsiflari	
Maʼlumotlar turi	Maʼlumotlar turi tavsifi
int()	Butun sonlar, masalan, oʼquvchilar sonini ifodalash uchun.
float()	Haqiqiy sonlar, masalan, pul midorini ifodalash uchun.
str()	Satrli, masalan, soʼz yoki gaplarni ifodalash uchun.
bool()	Mantiqiv, rost yoki volgʼon ekanligini ifodalash uchun
complex()	Kompleks songa almashtirish
dict()	Lugʼatga almashtirish.
frozenset()	Oʼzgarmas toʼplamni qaytaradi.
list()	Roʼyxat yaratadi.
set()	Toʼplam varatadi.

**1-rasm. Maʼlumotlar turi va uning tavsiflarining mantiqiy sxemasi.**

Bu mantiqiy sxemada Maʼlumotlar turi va tavsifiga oid tushunchalar berilgan boʼlib, har bir tushunchaga kompyuter modeli yaratilgan.





Ma'lumotlar turi bilan ishslash jarayonini o'quvchilarga tushuntirish uchun uni misollarda kompyuter modeli yordamida har bir bandini bajarilish jarayonini ko'rsatamiz (2-rasm).

### MISOL:

3. Xonaning bo'yи (x) va eni (y) metr foydalanuvchi tomonidan kiritiladi. Xonaning yuzasi (S) va perimetri (P)ni topish dasturini tuzing. (9-sinf darsligi asosida).

```
a=int(input('a='))  
b=int(input('b='))  
S=a*b  
print('S=',S,'mert kadrat')  
x=input()  
#P=2*(a+b)  
#print('P=',P,'metr')
```

The screenshot shows two windows of the IDLE Shell 3.10.6 Python 3.10.6 (tags/v3.10.6:f967bd, Aug 1 2022, 21:53:49) [MSC v.1932 64 bit (AMD64)] on win32. The left window contains the Python code for calculating the area and perimeter of a rectangle. The right window shows the output of the code execution.

**Code (Left Window):**

```
a=int(input('a='))  
b=int(input('b='))  
S=a*b  
print('S=',S,'mert kadrat')  
x=input()  
#P=2*(a+b)  
#print('P=',P,'metr')
```

**Output (Right Window):**

```
F5 tugmani bosganimizdan so'ng a= ning qiymatini  
kiritishi ko'rsatadi, klaviatura orqali 'a' ning qiymatini  
kiritilib Enter tugmasi bosilsa 'b' ning qiymatini  
kiritish buyrug'i chiqadi, 'b'ning qiymatini kiritib Enter  
tugmasi bosilsa 'S' yuza natijasi chiqadi, yana bir  
marta Enter tugmasini bossak 'P' ning natijasi chiqadi.
```

**Code (Bottom Window):**


```
a=4  
b=5  
S= 20 mert kadrat  
P= 18 metr
```

### 2-rasm. Ma'lumotlar turi mavzusiga doir masalaning bajarilish jarayoni.

Yuqorida berilgan misolda Ma'lumotlar turi mavzusiga doir masalaning bajarilish jarayonini kompyuter model yordamida ko'rsatib beriladi. Bu jarayon 2-rasmda tasvirlangan. Bunday tarzda masalalarni yechishni o'quvchilarga tushuntirish va operatorlarning ishslash prinsipini to'liq o'zlashtirish uchun asos bo'ladi.

Ma'lumotlar turlari va ularning tavsiflarini va amaliy masalalarni yechishda quyidagi asosiy tushunchalarni o'rgandik.

- ma'lumotlar turlari bilan ishslashni;
- ma'lumotlar turlari tavsiflarini;
- amaliy masalalarni Python dasturida yechishni;
- pythonda operatorlarni to'g'ri tanlashni;
- dastur tuzishni;
- python dasturida amaliy masalalarni yechimini topishdagi tadbig'i.
- axborot texnologiyalari bilan ishslashni.





11-SON

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Informatika va axborottexnologiyalari: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik: M. R. Fayziyeva, D. M. Sayfurov, N. S. Xaytullayeva - Toshkent: Tasvir, 2020. – 112 b. Professor F. M. Zakirovaning umumiy tahriri ostida.
2. Informatika va axborot texnologiyalari. O'qituvchi kitobi: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun o'quv metodik qo'llanma / M. R. Fayziyeva, D. M. Sayfurov. – Toshkent: Tasvir, 2020. – 112 b. Professor F. M. Zakirovaning umumiy tahriri ostida.
3. dr.rtm.uz

